

MARKETING

ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL



№11-S O N

9710 xalqaro daraja



№240874




ISSN: 3060-4621

2025-YIL, NOYABR



OPEN  ACCESS



JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:

info@marketingjournal.uz

TELEGRAM BOT:

[@marketingjournalbot](https://t.me/tidiumarketingjournal)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tidiumarketingjournal>

MUASSIS

"Tadbirkor va ishbilarmon" MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU, "Marketing" kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NamDTU, "Marketing" kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU "Marketing" kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortqimrziyevich, i.f.d., prof., TDIU, Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdurahmonovich, i.f.d., TDIU, "Marketing" kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulnaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU, "Marketing" kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU, "Marketing" kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU, "Marketing" kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU, Departament boshlig'i;

Musheva Shoirazimovna, i.f.n., SamSI, "Marketing" kafedrasini professori;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU, "Marketing" kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otabek Djurabayevich, i.f.d., TDIU, "Innovatsion menejment" kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU, "Axborot texnologiyalari" kafedrasini katta o'qituvchisi;

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., NamDTU, "Menejment" kafedrasini mudiri, dotsenti;

Fayzullayev Jaylonbek Sultonovich, DSc., TDIU, "Yashil iqtisodiyot" kafedrasini dotsenti;

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, "Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik" kafedrasini professori;

Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasini dotsenti

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, "Savdo ishi" kafedrasini mudiri

Jumayev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori;

Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich, PhD., TDIU, Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari fakulteti dekan muovini

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti O'quv ishlari bo'yicha prorektor;

Abduvaxidov Abdumalik Maxkamovich, i.f.d., TDIU, "Turizm va servis" kafedrasini professori;

Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, TDIU, "Biznes boshqaruvi va logistika" kafedrasini professori

Tuychiyev Alisher Jurayevich, Alfraganus University "Iqtisodiyot" fakulteti dekani, professor;

Nazarova Ra'no Rustamovna, TDIU, "Yashil" iqtisodiyot kafedrasini mudiri, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Usmonov Bunyod Aktam o'g'li, PhD, TDIU, Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU, Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

Boltaev Umidjon Talant o'g'li, i.f.f.d., PhD., Toshkent arxitektura qurilish instituti "Iqtisodiyot va ko'chmas mulkni boshqarish" kafedrasini dotsenti;

Bayxonov Bahodirjon Tursunbayevich, i.f.d., DSc, NamDTU, "Menejment" kafedrasini dotsenti;

Pardayev Sherzod Xolmurodovich, i.f.f.d., PhD., TDIU, "Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes" kafedrasini dotsenti;

Beknazarov Behzod Baxtiyor o'g'li, PhD., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali "Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes" kafedrasini dotsent v.b.

Rajabova Moxichexra Abduxolikovna, PhD., Buxoro davlat universiteti marketing va menejment kafedrasini o'qituvchisi.

Elektron nashr 725 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 29- noyabrda ruxsat etildi

MUNDARIJA

BANGLADESH VA O'ZBEKISTONDA TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI BOZORINING RIVOJLANISHI....	7
Soliyev Axmadjon	
ИНТЕГРАЦИЯ НЕЙРОМАРКЕТИНГОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ЭКОСИСТЕМУ E-COMMERCE: АНАЛИЗ ПОВЫШЕНИЯ КОНВЕРСИИ И ПОЛЬЗОВАТЕЛЬСКОГО ОПЫТА НА ПРИМЕРЕ КРУПНЕЙШИХ ОНЛАЙН-ПЛАТФОРМ	22
Икрамов Мурат Акрамович, Юлдашев Жамшид Абрарович	
МОДЕЛИ МАШИННОГО ОБУЧЕНИЯ ДЛЯ ПРОГНОЗИРОВАНИЯ КОДА ТН ВЭД: ПЕРСПЕКТИВЫ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ	37
Муратова Шохиста Ниматуллаевна	
GLOBALLASHUV SHAROITIDA HUDUDLARNI RIVOJLANTIRISH JARAYONLARINING O'ZIGA HOS JIHATLARI (RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASI MISOLIDA).....	45
Tuychiev Alisher Jurayevich	
ОСОБЕННОСТИ ЦИФРОВОГО МАРКЕТИНГА В МАЛОМ БИЗНЕСЕ И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВЕ	56
Касимова Фатима Тулкуновна, Джалилов Шерзод Кахрамонович	
FACTORS OF EFFECTIVE DEVELOPMENT OF PRODUCTION POTENTIAL OF INDUSTRIAL ENTERPRISES	62
Allaeva Gulchekhra Jalgasovna	
HUDUDLARDA IQTISODIY XAVFSIZLIK KO'RSATKICHLARI TENDENSIYASINI BAHOLASH	70
Bayxonov Baxodirjon Tursunbayevich	
MINTAQALAR RIVOJLANISHINING IMIJ YARATISHGA ASOSLAGAN NAZARIYALARI	78
Duschanov Alisher Sherzod o'g'li	
MAJBURIY SUG'URTA ZAXIRALARINI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISHNING AMALDAGI HOLATI	85
Kodirkulov Oybek Turdiboyevich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLAR FAOLIYATINI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA MOLIYAVIY MUNOSABATLARNI SAMARALI TASHKIL ETISH YO'LLARI.....	98
Jo'raxonov Muzaffar Eskandarovich	
SANOAT KORXONASI BOZORINING RIVOJLANISHI VA UNDA KICHIK BIZNESNING O'RNI	107
Usmonova Dilfuza Ilhomovna	
TIBBIYOT MUASSASALARIDA DAROMAD VA XARAJATLARNI TAN OLISH, HISOBGA OLISH VA MOLIYAVIY HISOBOTDA AKS ETTIRISHNING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARI.....	116
Ruziyeva Umida Muzaffarovna	
INNOVATSION STRATEGIYANI ISHLAB CHIQISH VA AMALGA OSHIRISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING MEZON VA KO'RSATKICHLARI	126
Yusupov Saidvali Shukrullayevich	
SOHALAR KESIMIDA SOLIQ YUKINI ANIQLASHNING AHAMIYATI	137
Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich, Aminboyev Javohir Ravshanbek o'g'li, Abdiyev Mansur Musurmonovich, Choriyev Og'abek Alisher o'g'li, Usmonov Doniyor Maxamadjon o'g'li	
АНАЛИЗ ДЕТЕРМИНАНТ МИГРАЦИОННОГО ОТТОКА ВЫСОКОКВАЛИФИЦИРОВАННЫХ СПЕЦИАЛИСТОВ ИЗ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И РАЗРАБОТКА СТРАТЕГИЙ ИХ РЕТЕНЦИИ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ	144
Сайфутдинова Нигина Фуркатовна, Хусаннов Равшан Рахимович	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ ОЦЕНКИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ ХЛОПКОВО-ТЕКСТИЛЬНЫХ КЛАСТЕРОВ УЗБЕКИСТАНА.....	157
Холикова Рухсора Санджаровна	
O'ZBEKISTON ELEKTRON PULGA O'TISH SHAROITIDA ELEKTRON TO'LOV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH, KORRUPSIYA VA YASHIRIN IQTISODIYOTNI BARTARAF ETISHDAN KUTILAYOTGAN SAMARADORLIK.....	169
Abdiyev Mansur Musurmonovich, Xujamuradov Abror Ro'zimurat o'g'li, Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich	
O'ZBEKISTONDA MAQBUL QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BOZORINI RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI	185
Akbarov Boburjon Sobirjon o'g'li	
MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION EKOTIZIMLARNI SHAKLLANTIRISH KO'RSATKICHLARINI BAHOLASH.....	193
Ramazanov Suhrobjon Sherzod o'g'li	

TASHQI SAVDO KO'RSATKICHLARINING KO'P OMILLI KLASSTER TAHLILI (O'ZBEKISTON MISOLIDA).....	202
Abdujalilova Bibisora Baxodir qizi	
O'ZBEKISTON OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI BOZORINING HOLATI VA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI.....	209
Soliyev Axmadjon, Ibroximov Avazbek	
DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALARNI XUSUSIYLASHTIRISH JARAYONIDA KADRLAR SALOHİYATINI SAQLAB QOLISH VA RIVOJLANTIRISH STRATEGİYALARI	217
Bekchanov Ruslan Ambiyatovich	
MINTAQADA IQTISODIY-EKOLOGIK MEXANIZMLARDAN SAMARALI FOYDALANISH XUSUSIYATLARI	222
Sapayev Maxsudbek Karimovich	
MINTAQ SANOATINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH USULLARI.....	227
Raxmatullayev Doston Asad o'g'li	
MODERN APPROACHES TO INDUSTRIAL COOPERATION AND THEIR APPLICATION IN UZBEKISTAN'S ECONOMY	233
Boyturayev Olimjon Urayimovich	
NAVOIY VILOYATIDA “YASHIL BELBOG’”LAR BARPO ETISHDA INFRATUZILMA BILAN TA'MINLASH MINTAQAVIY MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMLARI	244
Sayfulina Alfira Feratovna	
MINTAQ SAVDO KORXONALARINING JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA MARKETING STRATEGIYASIDAN FOYDALANISH KO'RSATKICHLARINI BAHOLASH	259
Otaxonova Dinora Musaboy qizi	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA SUN'IY VA KIMYOVIY TOLALARNING IQTISODIY AFZALLIKLARI.....	266
Raximov Furqat Jalolovich	
MARKAZIY BANKNING PUL TAKLIFI VA BANK REZERV LARI SIYOSATI: DUNYO VA O'ZBEKISTONDA TAHLIL.....	276
Safarova Zarina	
TIBBIY XIZMATLAR KO'RSATUVCHI KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	286
Vaisov Dilshod Ibodullayevich	
INTEGRATED E-COMMERCE MANAGEMENT SYSTEM BASED ON THE ERPI INDEX: CONCEPT, METHODOLOGY, AND MANAGEMENT MECHANISMS FOR THE DEVELOPMENT OF E-COMMERCE IN UZBEKISTAN	295
Isokhujaeva Munira Yashnarovna	
РАЗВИТИЕ ВНУТРЕННЕЙ ТОРГОВЛИ И ПОВЫШЕНИЕ ЕЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ	301
Рауандина Гулдарай Калкеновна, Сайфуллаева Мадина Исмаевна	
MAHSULOTLARNING RAQAMLI MAHSULOT PASPORTINI YARATISH JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASHNING NAZARIY ASOSLARI	315
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	
DUNYODAGI MINTAQAVIY TAFOVUTLAR: ASOSIY RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARI TAHLILI VA ULARNI KAMAYTIRISH BO'YICHA YECHIMLAR.....	327
Matyoqubova Dilfuza Olimboyevna	
INTELLEKTUAL BOSHQARUV TIZIMLARINING SANOAT KORXONALARIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDAGI ROLI	334
Xidirova Barchinoy Ilxomovna	
TEMIR YO'L TRANSPORTI TIZIMINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH VA BOSHQARUV MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA MARKETING STRATEGIYALARINING ROLI	341
Mauzerov Jaxongir Ulug'bek o'g'li	
YASHIL TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA ISHLAB CHIQARISHNI RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK MARKETINGNING AHAMIYATI	348
Ergashev Sanjarbek Sobirjon o'g'li	
MINTAQADA RAQAMLI IQTISODIY SALOHİYATNI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	355
Yusubov In'omjon Ikram o'g'li	
ЭВОЛЮЦИЯ МАРКЕТИНГА И ТЕХНОЛОГИЙ КАК ФАКТОРОВ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ	362
Туйчиев Комилжон Лазизович	

OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI BOZORIDA MARKETING TADQIQOTLARINI O'TKAZISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	369
Murtozayeva Dilnoza Boboniyoz qizi	
ИННОВАЦИИ КАК КЛЮЧЕВОЙ ФАКТОР РАЗВИТИЯ СОВРЕМЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ.....	378
X.T. Буриев, Тошимов Улугбек Хакимович	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASTERLARINI RIVOJLANTIRISH MODELLARI	384
Atajanova Guli Maxsudbekovna	
THE EVOLUTION OF MANAGEMENT APPROACHES IN THE 21ST CENTURY – ADAPTIVE MODELS OF TRANSFORMATION OF ORGANIZATIONAL STRUCTURES	391
Tukhtaboev Abdurashid Tursunovich	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA, ELEKTRON XIZMATLAR VA AI TEXNOLOGIYALARINING BOSHQARUV SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	398
Zayavitdinova Nafisa Muxammadovna	
MARKETING TADQIQOTLARDA BOG'LIQLIK KOEFFITSENTLARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	409
Muradov Rustamjon Sobitxonovich	
GLOBALASHUV DAVRIDA MAMLAKATDA FRILANSERLIK FAOLIYATI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISH YO'LLARINI TAKOMILLASHTIRISH	417
Lutpidinov Shuxrat Zakirdjanovich	
AHOLI TURMUSH DARAJASINING KO'P OMILLI INDIKATORLARINI SHAKLLANTIRISHNING NEYRO-RAVSHAN KLASSIFIKATSIYA MODELI	428
Mirzayev Shoxrux Normurod o'g'li	
AVTOMOBIL SAVDOSIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA MARKETING TEXNOLOGIYALARINING ROLI.....	435
Adamboyev Abror Akrom o'g'li	
СТРАТЕГИЧЕСКАЯ РОЛЬ СЕМЕHOBOДЧЕСКОГО СЕКТОРА В СИСТЕМЕ ГЛОБАЛЬНОЙ АГРАРНОЙ И ПРОДОВОЛЬСТВЕННОЙ ЭКОНОМИКИ.....	443
Aхмедова Мадина Шухрат кизи	
RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANISHIDA ZAMONAVIY AXBOROTLARNI O'RNI	458
Samatov Azizbek Abdulaxatovich	
SI BILAN JIHOZLANGAN INNOVATSIYALARINING CHAKANA SAVDODAGI ROLI: ISTE'MOLCHI JALB ETILISHI, XARID ODATLARI VA MARKETING STRATEGIYASI.....	464
Safarov Baxtiyor Djurakulovich	
KICHIK BIZNES SOHASIDA MOLIVAVIY MUNOSABATLARNI SAMARALI TASHKIL ETILISHI SUBYEKTLAR FAOLIYATI BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING BOSH OMILI	482
Jo'raxonov Muzaffar Eskandarovich	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYALARNI MOLIVAVIY BOSHQARISHNING JORIY HOLATI VA TA'SIR QILUVCHI OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILLARI	491
Ismailov Dilshod Anvarjonovich	
TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY MARKETING STRATEGIYALARINING O'RNI	504
Xamidbayev Asadbek Nodir o'g'li	
MODA INDUSTRIYASI MARKETING STRATEGIYALARI ORQALI XALQARO BOZORLARGA CHIQISH IMKONIYATLARI.....	511
Alimxodjayeva Nargiza Elshodovna	
TO'QIMACHILIK KORXONALARI B2B BOZORIDA MARKETING STRATEGIYALARINING SAMARADORLIK OMILLARI.....	519
Sapayeva Nilufar Kadambayevna	
TIJORAT BANKLARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI TAVSIFLOVCHI MOLIVAVIY KO'RSATKICHLARNI YAXSHILASH IMKONIYATLARI.....	526
Ibodullayev Shohboz To'liqin o'g'li	
DAVLAT SEKTORIDAGI TASHKILOTLARDA QURILISH-TA'MIRLASH XARAJATLARI HISOBINING XORIJ TAJRIBASI.....	534
Azizova Zilola Lochinovna	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA YASHIL KREDITLASH MEXANIZMLARINI OPTIMALLASHTIRISH: EKOLOGIK LOYIHALARNI QO'LLAB-QUVVATLASH TAHLILI.....	544
Allayarov Suxrob Rustamovich	

OILAVIY TADBIRKORLIK OMILLARI VA KAMBAG‘ALLIK DARAJASINI QISQARTIRISHNING PROGNOZ KO‘RSATKICHLARI	553
Zaxidova Umida Farxodovna	
МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ УЗБЕКИСТАНА	567
Аминова Азиза Батырбаевна	
AVTOMOBIL SANOATIDA MARKETING TADQIQOTLARI ASOSIDA INVESTITSION LOYIHALARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI	575
Nasritdinova Gulchexra Abdurashitovna	
HUDUDLARDA SANOAT KORXONALARI FAOLIYATINI BOSHQARISHNING TEXNOLOGIK MODERNIZATSIYALASH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH	583
Qalandarova Gulshoda Nazirjon qizi, Goziyeva Shaxina Djahongirovna	
SANOAT KLASSTERLARIDA MARKETING EKOTIZIMI ISHTIROKCHILARI O‘RTASIDAGI O‘ZARO ALOQALAR TAHLILI	591
Sobirov Azizbek Avazbekovich	
AUTSORSING VA AMALIYOT	601
Shodmonov Shokir Dustmurodovich	
ПОВЕДЕНЧЕСКИЕ БАРЬЕРЫ В ПРОЦЕССЕ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЯ О ПОКУПКЕ.....	610
Усмонова Диёра Маҳмуд кизи, Нухритдинхаджаев Улугбек, Атаханов Асадбек	
AGROSANOAT KORXONALARIDA RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINING SAMARADORLIGINI OPTIMALLASHTIRISH	620
Fayzullayev Shuhrat Sherali o‘g‘li	
MODA INDUSTRIYASI MARKETING STRATEGIYALARI ASOSIDA AUDITORIYANI SEGMENTATSIYALASH	628
Ahmedova Rayhona Jasurbek qizi	
QURILISH TARMOG‘IDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHOTLAR VA ULARNING RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI	636
Arifdjanova Zilola Dilshodovna	
HUDUDLAR BO‘YICHA MOLIVAVIY INKLYUZIYA DARAJASINI BAHOLASHGA ILMIY-USLUBIY YONDASHUVLAR	645
Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o‘g‘li	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОМНИКАНАЛЬНЫХ СТРАТЕГИЙ В ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ.....	660
Эргашходжаева Шахноза Джасуровна, Хасанов Ганишер, Сафаров Азизбек	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI VA TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI	676
Ibragimov Salohiddin Ochilovich	
TEMIR YO‘L TRANSPORTI KORXONALARIDA ASOSIY FONDlardan FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI VA METODIK YONDASHUVLARI	685
Turdiyeva Irodaxon Ismoil qizi	
INVESTITSION RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISHNI RAG‘BATLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASIDAN FOYDALANISH YO‘LLARI	694
Isakov Axmadali Esanbaevich	
CRM-УПРАВЛЕНИЕ В СЕТЕВЫХ СУПЕРМАРКЕТАХ РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАН: КАК ДАННЫЕ О КЛИЕНТАХ, ЛОЯЛЬНОСТЬ И ОМНИКАНАЛЬНОСТЬ ПОВЫШАЮТ ЭФФЕКТИВНОСТЬ РОЗНИЦЫ (ФОКУС НА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ).....	704
Юсупов Улугбек Шукруллаевич	
MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARI INNOVATSION SALOHİYATINI BOSHQARISH MEXANIZMLARI	715
Dadamirzayev Muzaffar Xabibullayevich	

QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA ISHLAB CHIQUARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI VA TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Ibragimov Salohiddin Ochilovich

Alfraganus universiteti
“Menejment va marketing” kafedrası
i.f.f.d.,(PhD) dotsent

Annotatsiya

Ushbu maqola qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish masalalari va istiqbollarga bag‘ishlangan. Mazkur tarmoqdagi ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog‘liq dolzarb muammolar tahlil qilinadi hamda ularni samarali hal qilish uchun innovatsion yondashuvlar taklif etiladi. Ma’lumotlar muammolarni aniqlash, mumkin bo‘lgan yechimlarni ko‘rib chiqish va zamonaviy qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarning ishlab chiqarish samaradorligi hamda raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: qurilish materiallari, ishlab chiqarish samaradorligi, innovatsion yechimlar, raqobatbardoshlik, resurslarni tejash, sifat nazorati, ishlab chiqarish jarayoni, texnologik yangilanish, barqaror rivojlanish, iqtisodiy samaradorlik

Аннотация

Данная статья посвящена вопросам и перспективам повышения производственной эффективности в строительной отрасли. Анализируются актуальные проблемы, связанные с производственными процессами в данной отрасли, и предлагаются инновационные подходы для их эффективного решения. Материал позволяет выявлять проблемы, рассматривать возможные решения и разрабатывать практические рекомендации, направленные на повышение производственной эффективности и конкурентоспособности предприятий по производству современных строительных материалов.

Ключевые слова: строительные материалы, производственная эффективность, инновационные решения, конкурентоспособность, экономия ресурсов, контроль качества, производственный процесс, технологические обновления, устойчивое развитие, экономическая эффективность

Abstract

This article is dedicated to the issues and prospects of improving production efficiency in the construction materials industry. It analyzes the current challenges associated with production processes in this sector and proposes innovative approaches for their effective resolution. The study aims to identify problems, consider possible solutions, and develop practical recommendations aimed at enhancing the production efficiency and competitiveness of enterprises manufacturing modern construction materials.

Keywords: construction materials, production efficiency, innovative solutions, competitiveness, resource saving, quality control, production process, technological innovation, sustainable development, economic efficiency

KIRISH

Hozirgi kunda qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoati ko'plab davlatlar iqtisodiyotida muhim o'rin tutadigan asosiy tarmoqlardan biridir. O'zbekiston sharoitida ham bu soha mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash, ish o'rinlarini yaratish va milliy sanoat salohiyatini oshirishda muhim rol o'ynamoqda. Qurilish materiallari turli inshootlarda — uy-joy qurilishi, sanoat korxonalari, infratuzilma loyihalari, yo'llar, ko'priklar va boshqa muhim obyektlarda keng qo'llaniladi.

So'nggi yillarda innovatsion iqtisodiyot sharoitida qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar uchun bir qator yangi vazifalar yuzaga kelmoqda. Ularga bino va inshootlarning energiya samaradorligini oshirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash, ijtimoiy va texnik muammolarni bartaraf etish kiradi. Shu bilan birga, mahalliy xomashyo asosida sifatli, arzon va yuqori iste'mol ko'rsatkichlariga ega yangi turdagi qurilish materiallarini ishlab chiqarish ham dolzarb masala sifatida qaralmoqda.

Raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va optimallashtirish imkoniyati ham kengaymoqda. Bu esa korxonalarning ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va raqobatbardoshlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, tarmoqqa zamonaviy texnologiyalarni joriy etishda va ishlab chiqarish quvvatlarini samarali boshqarishda ayrim qiyinchiliklar mavjud.

Boshqa sohalarda bo'lgani kabi, qurilish materiallari sanoatida ham ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda muayyan cheklovlar uchraydi. Joriy texnologiyalar yetarlicha modernizatsiya qilinmagan, ishlab chiqarish quvvatlari cheklangan va xarajatlar yuqori bo'lishi mumkin. Ushbu muammolarni hal qilish innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va zamonaviy texnologiyalarni moslashtirishni talab qiladi.

Shuning uchun qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatida samaradorlikni oshirish masalasi bugungi kunda nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ekologik ahamiyatga ega bo'lgan dolzarb mavzu hisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayonini takomillashtirish orqali korxonalar nafaqat ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishi, balki mahsulot sifatini yaxshilashi, ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini oshirishi mumkin. Shu sababli ushbu masala qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyatini yanada samarali tashkil etish va barqaror rivojlantirish uchun katta ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR SHARHI

Qurilish materiallari sanoatida mavjud texnologiyalar samaradorlikni oshirishda jiddiy to'siqlarga duch kelmoqda. Ushbu muammolarga eskirgan va samaradorligi past ishlab chiqarish usullari, resurslardan noaniq yoki noto'g'ri foydalanish, shuningdek, yakuniy mahsulot sifatining pasayishi kiradi. Bundan tashqari, ko'plab texnologiyalar ekologik xavfsizlik va ishlab chiqarish xavfsizligi bo'yicha zamonaviy talablarni to'liq qondirmaydi.

Ishlab chiqarish quvvatlarining cheklanganligi ham qurilish materiallari sanoatining samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Yetarli quvvatlar mavjud

bo'lmaganda yetkazib berish kechikadi, mavjud uskuna va jihozlardan maksimal darajada foydalanishga to'g'ri keladi, bu esa mehnat unumdorligini pasaytiradi va ishlab chiqarish hajmini kengaytirish imkoniyatlarini kamaytiradi. Yuqori ishlab chiqarish xarajatlari ham samaradorlikni chekllovchi asosiy omillardan biridir. Xom ashyo, energiya va mehnat resurslarining yuqori narxi mahsulotlarning yakuniy narxini oshirib, bozordagi raqobatbardoshlikka salbiy ta'sir qiladi.

Shu sababli qurilish materiallari sanoatidagi muammolarni chuqur tahlil qilish va ularni bartaraf etishga qaratilgan yechimlarni ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda ushbu sohada mavjud muammolar va kamchiliklar yetakchi mutaxassislar, olimlar va tadqiqotchilar tomonidan ilmiy jihatdan o'rganilib, ularni bartaraf etish bo'yicha keng ko'lamli tadqiqotlar olib borilmoqda.

O'zbekistonda qurilish materiallari sanoatini rivojlantirish masalalari davlat darajasida ham e'tiborga olingan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan bir qator farmon va qarorlar sohada ijobiy o'zgarishlarga olib kelmoqda. Jumladan, 2023-yil 11-sentabrda qabul qilingan PF-158-sonli "O'zbekiston - 2030 strategiyasi" farmonida sanoatning "drayver" tarmoqlarini rivojlantirish, hududlarning sanoat salohiyatini to'liq ishga solish, qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmini ikki barobar oshirish va yangi energiya tejovchi materiallar ishlab chiqarishni kengaytirish masalalari alohida ta'kidlangan [1].

Shuningdek, Prezidentning PF-60-sonli "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" farmoni (2022-2026-yillar) qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmini ikki barobar oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni belgilaydi [2]. 2019-yil 23-maydagi PF-4335-sonli farmon esa sanoatni jadal rivojlantirish, diversifikatsiya qilish va mahalliy xom ashyo resurslarini qayta ishlashga investitsiyalarni jalb qilish kabi ustuvor yo'nalishlarni belgilaydi [3]. Shu bilan birga, 2022-yil 21-fevraldagi PQ-139-sonli qaror uy-joy qurilishi va qurilish materiallari sanoatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlarni belgilaydi [4].

Qurilish materiallari sanoatidagi samaradorlikni oshirish masalasi bo'yicha nafaqat davlat tomonidan, balki ilmiy jamoatchilik tomonidan ham keng ko'lamli tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu sohada o'z hissasini qo'shgan rus olimlaridan A.A. Ugryumov, A.B. Voronin, A.A. Voronin, J.I.S. Markova, J.I.B. Ivanenko, V.P. Tretyaka, V.V. Matitsyna, J.I.N. Asaullarni, shuningdek, mahalliy olimlardan Sh.N. Zaynutdinov [5], M.K. Ziyaev [6], R.I. Nurimbetov [7], I.X. Davletov [8], A.D. Metyakubov [9] kabi mutaxassislarni misol keltirish mumkin. Ularning aksariyat ilmiy ishlari qurilish materiallari sanoatidagi muammolarni aniqlash va samaradorlikni oshirishga qaratilgan.

METODOLOGIYA

Maqolada qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan keng foydalanilgan: iqtisodiy va statistik ma'lumotlarni o'rganish va taqqoslash, qiyosiy tahlil, mantiqiy fikrlash, ma'lumotlarni guruhlash, shuningdek, analiz va sintez usullari. Ushbu metodlar qurilish materiallari sanoatidagi

samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari samaradorligini baholash va ularning iqtisodiy jihatdan ta'sirini aniqlash imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda qurilish hajmi ancha ortib, xususan turar joy binolari, ijtimoiy obyektlar sanoat va transport infratuzilmasi keng ko'lamda bunyod qilinmoqda. Bu esa aholi turmush darajasini oshirish va iqtisodiyotni barqarorlashtirishda muhim omil hisoblanadi. Masalan, 2010-2024-yillarda mamlakatda yirik uy-joy majmualari, yangi tumanlar qurilishi tarmoqlarining kengayishi kuzatilmoqda.

1-jadval.


Respublikada 2010-2024-yillarda amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi¹

Hududlar	2010-y	2015-y	2020-y	2021-y	2022-y	2023-y	2024-y
O'zbekiston R.	8245,8	25423,1	88130,3	107493	130791	202819	263679
Qoraqalpog'iston R.	237,1	1219,3	3992,5	4480,6	5272,4	7457,8	8667,6
Andijon viloyati	345,3	1341,9	4673	5657,8	6864,1	10070,8	12936,2
Buxoro viloyati	580	2061,7	5659,8	7401,1	8448,7	13400,4	16863,8
Jizzax viloyati	211,5	759,2	2715	3085,4	3446,4	5543,6	6532,4
Qashqadaryo viloyati	699,2	2067,5	4832,6	6336,6	7793,8	12971,7	15614,8
Navoiy viloyati	418,9	1019,2	3944,7	5155,5	5855	9675,4	14343,1
Namangan viloyati	347,9	1010,4	4678,2	5556,7	6653,2	10819,1	13385,2
Samarqand viloyati	519,7	2010,6	5755,3	7385,7	8895,4	12226,9	15563,8
Surxondaryo viloyati	335,9	1351,3	4774,7	5868,4	6521,9	10880,8	13175,5
Sirdaryo viloyati	134,9	478,9	2407,6	2708,8	3260,1	4705,6	4874,2
Toshkent viloyati	509,9	1562	7102,6	9401,2	12237,4	20169,9	29331,4
Farg'ona viloyati	489,2	1649	5473,9	6993,7	8646	14014,5	16130,3
Xorazm viloyati	282,7	1174,7	2856,8	4228,5	4878,4	8652,6	11503,8
Toshkent shahri	1228,4	4113	19215,4	26535,4	32946,3	49850,3	70589,2

2010-2024-yillar davomida O'zbekiston Respublikasida qurilish ishlari hajmi barqaror va jadal o'sish tendensiyasiga ega bo'ldi. Agar 2010-yilda qurilish ishlari hajmi 8245,8 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilga kelib bu ko'rsatkich 263679 mlrd so'mga yetdi, ya'ni 31,9 baravarga oshdi. Eng katta o'sish 2020-yildan keyingi davrda, ya'ni pandemiyadan so'nggi tiklanish bosqichida kuzatildi. 2020-yildagi 88130,3 mlrd so'mlik ko'rsatkich 2024-yilga kelib uch baravardan ko'proqqa oshgan. Hududlar kesimida eng yuqori hajm Toshkent shahriga to'g'ri keladi: 2010-yildagi 1228,4 mlrd so'mlik qurilish ishlari 2024-yilda 70589,2 mlrd so'mga yetib, bu ko'rsatkich bo'yicha respublika miqyosida yetakchi bo'ldi. Toshkent viloyati, Andijon, Farg'ona, Samarqand, Buxoro viloyatlari ham yuqori o'sish sur'atlarini namoyon etdi.

¹ Muallif ishlanmasi

Masalan, Andijon viloyatida 2010-yildagi 345,3 mlrd soʻmlik qurilish ishlari hajmi 2024-yilda 12936,2 mlrd soʻmni tashkil etib, qariyb 37 baravarga oshdi.



1-rasm. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha qurilish ishlari hajmi¹

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha qurilish ishlari hajmi 2015-yildan 2024-yilgacha sezilarli darajada oshgan. 2015-yilda 25,423.1 birlikdan 2024-yilda 259,654.3 birlikka yaqinlashgan, ya'ni deyarli 10 barobar ko'paygan. Toshkent shahri va Toshkent viloyati qurilish ishlari hajmida yetakchi bo'lib, 2024 yilda mos ravishda 69,012.3 va 28,990.3 birlikni tashkil qiladi. Namangan viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasi ham yuqori o'sish ko'rsatkichlariga ega bo'lib, mos ravishda 54,310.9 va 222,935.8 birlikka yetgan. Boshqa viloyatlar esa nisbatan kichikroq hajmlarda qolmoqda. 2015-2019-yillarda qurilish ishlari hajmi asta-sekin o'sgan bo'lsa, 2020-yildan boshlab o'sish sur'ati sezilarli tezlashgan. Toshkent shahri va unga yaqin viloyatlar iqtisodiy faolligi va aholi zichligi sababli qurilish sohasida markaziy o'rin tutmoqda. 2020-yildan keyingi o'sish sur'atining tezlashishi davlat dasturlari va investitsiyalarning kuchayishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Qurilish sanoatini rivojlantirish uchun viloyatlar o'rtasidagi tafovutlarni kamaytirish va hududlarda loyihalarni ko'paytirish zarur.

O'zbekiston iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri bo'lgan qurilish materiallari sanoati an'anaviy rivojlanishdan innovatsion rivojlanishga o'tib bormoqda. Mamlakatda infratuzilmaviy loyihalarning kengayishi, qurilish sohasidagi

¹ Muallif ishlanmasi

islohotlar va ichki hamda tashqi bozorlardagi talabning oshishi mazkur tarmoqning strategik ahamiyatini yanada oshirib bormoqda.

O'zbekistonda qurilish sohasida amalga oshirilayotgan davlat dasturlari va xususiy sektorning sa'y-harakatlari qurilish materiallari ishlab chiqarishni zamonaviy standartlarga muvofiq rivojlantirishga yo'naltirilgan. Shu sababli qurilish materiallari sanoati nafaqat ichki talabni qondirish, balki eksportni rivojlantirish orqali mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyatida ham muhim o'rin tutmoqda.

O'zbekiston qurilish materiallari eksport xajmi va geografiyasi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval.

O'zbekistonning qurilish materiallari eksport xajmi va geografiyasi¹

Davlatlar	2023-yilda (mln. AQSh dollari)	2024-yilda (mln. AQSh dollari)	2024-yil 2023-yilga nisbati foizda
Qozog'iston	177	196,2	10,9
Qirg'iziston	89	106,8	20,0
Tojikiston	65	119,0	83,1
Turkmaniston	21	21,2	0,95

2-jadvaldan ko'rish mumkinki, 2023-2024-yillarda O'zbekiston qurilish materiallari eksporti geografiyasi bo'yicha sezilarli o'zgarishlar kuzatildi. Qozog'iston eksportning eng yirik bozori hisoblanib, 2023-yildagi 177 mln. dollardan 2024-yilda 196,2 mln. dollarga yetgan, 10,9 % ga o'sgan.

Qirg'izistonga eksport hajmi 89 mln. AQSh dollardan 106,8 mln. AQSh dollarga oshgan va yillik o'sish 20 %ni tashkil etgan. Tojikistonga eksport hajmi 65 mln. AQSh dollardan 119 mln. AQSh dollarga ko'tarilib, yillik o'sish 83,1 % ga teng bo'lgan.

Bundan ko'rinib turibdiki, bularning barchasi qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, zamonaviy raqobatbardosh qurilish materiallarini ishlab chiqarish alohida e'tibor berilmoqda.

Qurilish materiallari sanoatida mavjud texnologiyalar bir qator kamchiliklarga ega bo'lib, ular ishlab chiqarish samaradorligini pasaytiradi. Eng katta muammolardan biri ishlab chiqarish jarayonlarining past unumdorligi bo'lib, bu mahsulot hajmi kamayishi va ishlab chiqarish xarajatlarining oshishiga olib keladi. Shuningdek, xom ashyo va energiya resurslaridan samarasiz foydalanish ham sezilarli muammo hisoblanadi. Ba'zi hollarda esa avtomatlashtirish darajasi pastligi sababli mahsulot sifati va ishlab chiqarish tezligi zarar ko'radi. Qurilish materiallarining o'zida ham kamchiliklar bo'lishi mumkin, masalan, past mustahkamlik yoki ma'lum ish sharoitlariga mos kelmaslik. Shuning uchun samaradorlikni oshirish uchun yangi, sifatli va tejamkor texnologiyalarni joriy etish zarur. Ushbu jarayonda bir qancha to'siqlar ham mavjud. Eskirgan uskuna past mahsulдорlikka ega yoki zamonaviy talablarni qondirmasligi mumkin. Bundan tashqari, malakali ishchi kuchining yetishmasligi yoki ish o'rinlarining cheklanganligi ham muammo tug'diradi. Bu masalalarni hal qilish uchun ishlab chiqarish quvvatlarini chuqur tahlil qilish, zaruriy

¹ Manba: "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

modernizatsiya va investitsiyalarni aniqlash lozim. Shuningdek, kadrlar tayyorlash uchun o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangi mutaxassislarni jalb etish muhim ahamiyatga ega.

Samaradorlikni oshirishda innovatsion yondashuvlarni qo'llash sohaning rivojlanishiga katta turtki beradi. Qurilish materiallari sanoatida avtomatlashtirilgan tizimlarni joriy etish asosiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bu ishlab chiqarish tezligini oshirish, mehnat xarajatlarini kamaytirish va mahsulot sifatini yaxshilash imkonini yaratadi. Bundan tashqari, ekologik toza va energiya tejovchi materiallardan foydalanish ishlab chiqarishning energiya samaradorligini oshiradi va atrof-muhitga ta'sirni kamaytiradi. Ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish ham samaradorlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy texnologiyalar va metodlarni qo'llash ishlab chiqarish vaqtini qisqartirish, yo'qotishlarni kamaytirish va nuqsonlarni oldini olish imkonini beradi. Innovatsion yondashuvlar natijasida qurilish materiallari sanoati korxonalarining samaradorligi sezilarli darajada oshadi.

Avtomatlashtirish ishlab chiqarish jarayonlarida qo'l mehnatini kamaytiradi, jarayonlarni tezlashtiradi va optimallashtiradi, mahsulot sifati va aniqligini oshiradi. Bunday tizimlarga ishlab chiqarishni boshqarish dasturlari, robotlashtirilgan liniyalar va boshqa texnik yechimlar kiradi. Ularni joriy etish ishlab chiqarish jarayonlarini moslashtirish va xodimlarni tayyorlashni talab qilsa-da, natijada korxona samaradorligi va raqobatbardoshligi sezilarli darajada oshadi.

Hozirgi kunda qurilish materiallari sanoatida samaradorlik va mahsulot sifatini yaxshilashga qaratilgan yangi materiallar va texnologiyalar muntazam joriy qilinmoqda. Masalan, murakkab shakllarda va buyurtma asosida mahsulot yaratishga imkon beruvchi 3D bosib chiqarish texnologiyalari sohaga yangi istiqbollar ochmoqda.

Qurilish materiallari ishlab chiqarishning ekologik jihatlari ham katta ahamiyatga ega. Atrof-muhitga zararli ta'sirlarni kamaytirish uchun samarali filtrlar va tozalash tizimlari, energiya samaradorligini oshiruvchi zamonaviy texnologiyalar joriy etilishi muhim. Bu yo'nalish sohaning rivojlanishida ustuvor vazifa sifatida qaraladi.

Chiqindilarni qayta ishlash esa qurilish sanoatining atrof-muhitga ta'sirini kamaytirishda muhim o'rin tutadi. Yangi texnologiyalar chiqindilarni samarali qayta ishlash, ularning miqdorini kamaytirish va tabiiy resurslarning ifloslanishini oldini olish imkonini beradi. Chiqindilarni ishlab chiqarish jarayonida qayta ishlash yangi xom ashyo talabini kamaytiradi, xarajatlarni pasaytiradi va issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirishning samarali usuli hisoblanadi. Shu bois chiqindilarni qayta ishlash qurilish materiallari sanoatining samaradorligini oshirish va atrof-muhitni muhofaza qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'rganishlar natijasida qurilish materiallari sanoatining samaradorligini pasaytiruvchi asosiy muammo va to'siqlar aniqlandi. Ulardan eng muhimi – innovatsiyalar yetishmasligi va ishlab chiqarish texnologiyalarining eskirganligi hisoblanadi. Bundan tashqari, zamonaviy boshqaruv tizimlarining yo'qligi hamda avtomatlashtirishdan yetarlicha foydalanilmasligi sohaning samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Tadqiqot asosiy natijalariga ko'ra, ushbu muammolarni aniqlash

va ularni hal qilish qurilish materiallari sanoatining samaradorligini oshirish uchun zarurdir.

Shu bois, qurilish materiallari sanoatida samaradorlikni oshirish bo'yicha quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

- muammolarni aniqlash va ular bo'yicha samaradorlikni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish;
- soha ichida innovatsion jarayonlarni faollashtirish hamda zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etish;
- yangi boshqaruv tizimlarini yaratish va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishda avtomatlashtirish imkoniyatlaridan keng foydalanish;
- samarali va raqobatbardosh qurilish materiallarini ishlab chiqish uchun ilmiy-tadqiqot hamda tajriba-konstruktorlik ishlariga investitsiyalarni oshirish.

Xulosa qilib aytganda, sanoat korxonalari va ilmiy muassasalar o'rtasidagi hamkorlik qurilish materiallari sanoatining samaradorligini oshirishga muhim hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-158-son 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston - 2030 strategiyasi to'g'risida" Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar PF-60-sonli "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-may PF-4335-sonli "Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-4351738>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-fevral PQ-139-son "Uy-joylar qurilishini va qurilish materiallari sanoatini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori <https://lex.uz/ru/docs/-5871090>
5. Sh.N.Zaynutdinov Innovatsion salohiyatni oshirish strategiyasi. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 1, sentabr, 2011 yil
6. M.K. Ziyayev O'zbekistonda mustaqillik yillarida qurilish sohasining tiklanish va rivojlanish bosqichlari. Memorchilik va qurilish muammolari SamGASI 2016
7. R.I.Nurimbetov Toshmuxammedova K.S. Qurilish industriyasida innovatsion boshqarish usullarini joriy etishga ta'sir etuvchi omillar //Arxitektura. Qurilish. Dizayn. Ilmiy – amaliy jurnal, Izdatelstva TASI; Toshkent, 2016 №2.
8. Ibragimov S.O. Qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish. Avtoreferat, 2025.
9. S.O.Ibragimov "Respublikamizda qurilish materiallari sanoatini rivojlanish tendensiyalari"/ Arxitektura, Qurilish va Dizayn. Ilmiy – amaliy jurnal, TAQU. Toshkent, 2023 №4.
10. Saidov Mash'al Samadovich (2021) Tabiiy monopol tashkilotlarni boshqarishda raqobat muhitini rivojlantirish. Экономика и образование №4. 2021/8/30

11. S.O.Ibragimov “Qurilish materiallari ishlab chiqarishda innovatsion klasterlarni tashkil qilishni rivojlantirish istiqbollari “Ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi asosida ilm-fan va innovatsion yutuqlarni takomillashtirish istiqbollari” 197-202 b. SamDAQI 2021-yil.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, noyabr, 11-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi** rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**